

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

XALQARO INNOVATSION UNIVERSITET

XURRAMOVA DILOBAR MUXTOROVNA

OQOVA SUV VA UNI TOZALASH TIZIMI
TERMINOLOGIYASI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstrat of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Xurramova Dilobar Muxtorovna

Оқова сув ва уни тозалаш тизими terminologiyasi..... 5

Хуррамова Дилобар Мухторовна

Терминология сточных вод и систем их очистки. 23

Khurramova Dilobar Mukhtorovna

Terminology of wastewater and systems of their treatment..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

XALQARO INNOVATSION UNIVERSITET

XURRAMOVA DILOBAR MUXTOROVNA

OQOVA SUV VA UNI TOZALASH TIZIMI
TERMINOLOGIYASI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4546 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Xalqaro innovatsion universitetda bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Xujamurot
filologiya fanlari doktori, professor

Suyunov Baxodir Turdiyevich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 Ilmiy kengashning 2025-yil "28" avgust soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180119, Qarshi sh., Qarshi-Shahrisabz shoh ko'chasi A. Avloniy 15-uy). (Tel.: (+998 75 221-21-04; faks: (+998 75) 220-02-10; e-mail: kasu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti faollar zali.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (246 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (+998 75) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "16" avgust kuni tarqatildi
(2025-yil "16" avgust dagi 7 raqamli reyestr bayonnomasi).


D. To'rayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filol.f.d.,
professor
X. Yo'ldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.d. (DSc), dotsent
X. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliy tilshunosligida turli fan sohalarining ortib borishi va texnikada yangi tarmoqlarning vujudga kelishi natijasida fanlararo aloqadorlikning kuchayib, fan tarmoqlarida o'zaro ta'sir, muammo va masalalar yechimida hamkorlikning yuzaga kelishiga hamda yangidan yangi so'z va nomlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur jarayonlar milliy terminologiya va terminografiyani rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar qamrovini kengaytirishni talab etadi. Suv bilan bog'liq terminlar tizimini yaratish, tartibga solish, lingvistik va leksikografik talqini masalasi terminshunoslar diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. Toza suv, sifatli ichimlik suvi, foydalanilgan suv, suvni tozalash usuli, oqova suv bilan bog'liq terminlar lisoniy tabiati, lug'atlarda berilishini tartibga solish va mukammallashtirish masalasi soha terminlarini lingvistik o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

Dunyo tilshunosligi terminosistemasida har bir fan tarmog'iga tegishli terminning lingvistik xususiyatlari jiddiy ilmiy tadqiq etilmoqda. Terminologiyada o'ziga xos qimmatga ega oqova suv va tozalash tizimi terminlari alohida o'rin tutganligi sababli bu terminlarning til leksik tizimidagi o'rnini aniqlash, semantik-struktur tuzilishini tadqiq qilish, terminlar orasidagi ko'pma'nolilik, ma'nodoshlik, variantlilik hodisalariga oydinlik kiritish, ularni leksikografik talqin qilish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu boisdan qadimiy va zamonaviy shakldagi suv, oqova suv, tozalash tizimi terminlarini tadqiq va tahlil etish zarur, deb hisoblaymiz.

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida boshqa sohalarda bo'lgani kabi oqova suv va uni tozalash tizimini xalqaro andozalar talabi darajasida rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zotan, "globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash"¹ deb qaralayotgan bir paytda hozirgi zamon o'zbek tilshunosligining soha leksikasi, xususan, hanuzgacha tadqiqot obyekti bo'lmagan oqova suv leksikasini tartiblash va o'rganish dolzarblik kasb etadi. O'zbek tilshunosligida oqova suv va uni tozalash tizimiga aloqador atamalarning rus tilidan o'zlashganligi, aksariyat soha terminlari kalkalash asosida hosil qilinganligi, natijada terminlardagi noaniqliklar ayrim hollarda o'zbek tilida mukammal ifodalarining bo'lishiga qaramay ruscha yoki rus tili orqali o'zlashgan terminlarning ko'plab qo'llanayotganligi, sohaga doir terminologik lug'atlarning mavjud emasligi kabi qator muammolarning kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/>

to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ–4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”, 2023-yil 24-oktabrdagi PQ–343-son “Ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-dekabrdagi 981-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi suv obyektlarini muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi” to‘g‘risidagi nizom hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida suv leksemalari tadqiqiga doir talaygina ishlar amalga oshirilgan, N.V. Grishina², I.G. Vrajnova³, T.I. Badmayeva⁴, M.A. Sedova⁵, M.I. Zakirov⁶, T.V. Mirzayeva⁷, G.M. Telejko, D.D. Xayrullina⁸, M. Aychichek⁹, A. Borisova¹⁰, O.V. Starostina¹¹, O.A. Chernikova¹², N.V. Volosuxina tadqiqotlarida “Suv leksemasi sistem-struktur jihatdan bir necha yo‘nalishlarda tadqiq etilgan, uning lisoniy manzarada tutgan o‘rni xususidagi nazariy qarashlar tavsiflangan, suv xo‘jaligi bilan bog‘liq

² Гришина Н.В. Концепт вода языковой картине мира: На основе номинативного и метафорического полей русского языка XI – XX века. Дисс ... канд. филол. наук. – Саратов, 2002. – 210 с.

³Вражнова И.Г. Идиоматика в когнитивном и лингвокультурологическом аспекте (на материале фразеологических единиц с компонентами семантического «вода» в русском и английском языке). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2004. – 28 с.

⁴Бадмаева Т.И. Концепт вода на английской лингвокультуре. Дисс ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2006. – 220 с.

⁵Седова М.А. Концепт Aghe / вода во фриульском языке. Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Москва, 2007. – 27 с.

⁶Закиров М.И. Концепт вода / су в русских и татарских народных приметах: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 26 с.

⁷Мирзаева Т.В. Семантический объем лексемы вода в поэзии Вячеслава Иванова: «Кормчие звезды». Дисс... канд. филол. наук. – Тамбов, 2008. – 252 с.

⁸Хайруллина Д.Д. Бинарные концепты «огонь» и «вода» как фрагмент языковой картины мира (на материале английского и татарского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2009. – 25 с.

⁹Айчичек М. Репрезентация концепта вода фразеологической картине мира (на материале русского, турецкого и английского языков). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – 26 с.

¹⁰Борисова А.В. Особенности лексико-семантической корреляции единиц поля вода / вода в русском и польском языке / Филология и искусствоведение, 2012. – С. 168.

¹¹Старостина О.В. Функционирование единиц лексико-семантической группы вода в поэзии Серебряного века. Дисс ... канд. филол. наук. – Казань, 2016. – 179 с.

¹²Черникова О.А. Художественное слово Е.А.Носова в лексикографическом аспекте: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Курск: 2006. – С. 27.

terminlarning tuzilishi, yasash xususiyati, kognitiv, pragmatik ahamiyati, qiyosiy va chogʻishtirma metodlar”¹³ asosidagi xulosalari bayon qilingan.

Oʻzbek tilshunosligida M. Abdiyev, S. Akobirov, M. Asomiddinova, A. Hojiyev, X. Baqoyeva, R. Doniyorov, S. Ibrohimov, Gʻ. Ismoilov, I. Islomov, X. Jabborov, H. Jamolxonov, I. Yoʻldoshev, A. Madvaliyev, N. Mahkamov, Z. Mirahmedova, O. Oʻrinova, X. Narxodjayeva, O. Ramazonov, O. Usmonov, H. Shamsiddinova, T. Valiyevlar tomonidan olib borilgan kasb-hunar, sugʻorish, dehqonchilik, oʻsimlikshunoslikka oid terminologik tadqiqotlar eʼtiborga molik¹⁴.

A.P. Madvaliyev suvning ximiya termini sifatida boshqa soʻzlar bilan birikib soʻz birikmasi hosil qilishi, qoʻllanishi xususida aytib oʻtgan¹⁵. X. Jabborov suv leksemasining lugʻaviy-maʼnoviy xususiyatlari, leksemaning maqol, matal, iboralar tarkibidagi oʻrni va semantikasi xususida soʻz yuritgan¹⁶. I. Islomov tadqiqotida suv bilan bogʻliq geografik tushunchalar izohlangan¹⁷. M. Moʻminova oʻzbek tilida “Suv” komponentli lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilgan¹⁸.

Oʻzbek tilshunosligida *suv* soʻzining bosh va hosila semasi, shuningdek, qishloq xoʻjaligida alohida semantik qator hosil qilishi xususida manbalar mavjud, biroq leksemaning toza va sofliqi, ifloslangan oqova suv, uning ishlatilishi, ekologiyaga oid xususiyatlarini ifoda etuvchi semalari tadqiqot obyekti sifatida monografik tarzda oʻrganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya Xalqaro innovatsion universitetning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi “Oʻzbek tili va adabiyotining tarixiylik tamoyili va nazariy

¹³ Волосухина В.Н. Терминология водного хозяйства в научном дискурсе современного английского языка. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Пенза, 2011. – 28 с.

¹⁴ Жамолхонов Х.А. Ўзбек ботаника терминологиясининг таркиб топиши ва ривожланиш тарихидан: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзФА, 1969. – 247 б.; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 159 б.; Усмонов О. Ўзбек тили терминологиясида лексик вариантлар. – Тошкент: Фан, 1986. – 45 б.; Ҳожиев А. Термин танлаш мезонлари. – Тошкент: Фан, 1996. – 46 б.; Абдиев М. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: Халқ мероси, 2004. – 262 б.; Юлдашев И. Ўзбек китобатчилик терминологияси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: Фан, 2004. – 46 б.; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010. – 128 б.; Исмаилов Ғ.М. Ўзбек тили терминологик тизимларида семантик усулда термин ҳосил бўлиши. Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2011. – 26 б.; Исломов И. Ўзбек тилида ер сатҳи кўринишларини ифодаловчи атов бириквлари тизими: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2019. – 125 б.; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Қарши, 2011. – 255 б.; Ўринова О.Т. Ўзбек тилидаги қорамолчилик терминларининг лексик-семантик тадқиқи: Филол. фан. номз... диссертацияси. – Тошкент, 2007. – 121 б. Валиев Т.Қ. Ўзбек тили йўлсозлик терминларининг структур-семантик хусусиятлари ва лексикографик таркиби: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 52 б.

¹⁵ Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы её нормализации: Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – С. 23.

¹⁶ Жабборов Х. Ўзбек тилида *сuv* лексемасининг лугавий-маъновий хусусиятлари. Монография. – Тошкент, 2005. – 140 б.

¹⁷ Исломов И. Ўзбек тилида рельефонимлар: тизими, структураси ва маъновий муносабатлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 125 б.

¹⁸ Моʻminova M.Gʻ. Suv asosli sodda leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari / Taʼlim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 6-sonli online konferensiya. – Toshkent: 2023. – B. 155–167.

takomilini o'rganish muammolari" mavzusida olib borilayotgan tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili terminosistemasidagi oqova suv terminlarining struktur, semantik, derivatsion, leksikografik xususiyatlarini aniqlash, mavzuviy guruhlarini belgilash, dissertatsiya natijalarini "O'zbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining izohli-illyustrativ lug'ati"ni tuzishga tatbiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

o'zbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog'liq terminlarning o'zbek tili leksik tizimidagi o'rnini aniqlash;

oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining mavzuviy guruhlarini belgilash;

oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining struktur-grammatik xususiyatlarini bayon qilish, o'zbek tili so'z yasash qoliplari asosida hosil qilingan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlar tahlilini amalga oshirish;

oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining tartibga solish muammolarining o'ziga xos xususiyatlarini berish;

"O'zbek tili oqova suv va uni tozalash terminlarining illyustrativ-izohli lug'ati"da terminlarni tavsiflash tamoyillarini takomillashtirish, dissertatsiya natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti o'zbek tili terminosistemasidagi oqova suv va uni tozalash tizimi terminlaridir.

Tadqiqotning predmetini oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog'liq terminlarning mavzuviy, struktur, derivatsion-morfologik, leksikografik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tavsiflash, sistem tahlil, qiyosiy-tipologik, derivatsion, statistik, eksperimental tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o'zbek tili leksik tizimida oqova suv va uni tozalash terminlari alohida mikrosistema sifatida mavjudligi, uning semantik va funksional yaxlitlik sifatida tilning leksik makrosistemasidan mustaqil o'rin egallashi asoslangan;

oqova suv va uni tozalash sistemasiga oid o'zbekcha terminlar mavzu doirasida to'rtta makro guruhga ajratilib, har bir guruhning ichki kichik lug'aviy-ma'noviy guruhlarga ega ekani hamda bu holat terminlar semantik tuzilmasining murakkabligini ko'rsatib berishi dalillangan;

oqova suv sohasidagi terminlarning formal-struktur xususiyatlari umumtil birliklaridan farq qilishi, ular tarkibida sodda, qo'shma, birikmali va qisqartma terminlar mavjudligi, birikmali terminlar sakkiztagacha (*tindirgich, qumtutkich, biofiltrlash, KKE (kislorodga kimyoviy ehtiyoj), oqova suvlardagi og'ir metall ionlarini reagent usulida tozalash*) a'zoli birliklar shaklida tuzilishi isbotlangan;

oqova suvni zamonaviy tozalash usullariga aloqador ko'pgina tushunchalar ruscha-baynalmilal lug'aviy birliklar bilan ifodalanib kelinganligi sababli, ularni o'zbek tili talaffuz me'yorlariga to'g'ri keladigan holatda va yarim kalkalashtirish usulidan foydalanib o'zlashtirish lozimligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Oqova suv terminologiyasi bo'yicha to'plangan leksik materiallar, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar hozirgi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek tili terminologiyasi va leksikologiyasi uchun eng muhim zaruriy, ilmiy ma'lumot berishi, o'zbek tili leksikasi bo'yicha lug'atlar tuzishda, tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi, terminologiya, leksikologiya, dialektologiya, suv ta'minoti va kanalizatsiya, ekologiya, gidroekologiya fanlarini o'qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

Oqova suv va tozalash tizimi terminlari tadqiqi natijalari terminshunoslik muammosi bo'yicha yaratilayotgan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ommabop nashrlarda oqova suv va u bilan bog'liq terminlarni o'rinli ishlatish, shuningdek, izohli, imlo lug'atlari yaratilishida material va manba sifatida xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Muammoning aniq qo'yilganligi, uning o'rganilish chegaralari aniq belgilanishi, nazariy ma'lumotlar va faktik materiallar ishonchli ilmiy-badiiy manbalardan olinganligi, tavsiflash, sistem tahlil, qiyosiy-tipologik, derivatsion, statistik, eksperimental tahlil usullari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili leksikologiyasi va terminologiyasini oqova suv, tozalash terminlari haqidagi ilmiy qarashlar bilan boyitadi. Tadqiqotning ilmiy tahlili, nazariy qarash va usullaridan boshqa sohaviy birliklarni o'rganish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ma'lumotlar, natija va xulosalardan suv ta'minoti va kanalizatsiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi, gidroekologiya, gidrotexnika, biotexnologiya fanlari bo'yicha darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yozishda, ensiklopedik lug'atlar tuzishda, suv ta'minoti muhandislik tizimlari, suv resurslari va suvdan foydalanish, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishlarida ta'lim olayotgan bakalavr va magistr'larga maxsus kurs, maxsus seminarlar o'tishda manba va material sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oqova suv va uni tozalash tizimi terminologiyasi talqini yuzasidan olingan ilmiy tahlil, xulosa hamda natijalar asosida:

til sistemasida alohida mikrotizim sifatida o'z o'rniga ega bo'lgan oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog'liq terminlar va ularning leksikografik tahliliga oid natijalardan 2017–2018-yillarda bajarilgan OT-A1-018 “O'zbek tili va uning tarjimai bilan bog'liq elektron va bank-moliya terminlarining ko'p tilli lug'atlarini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 24-maydagi 04/1-1341-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida amalga oshirilgan elektron va ko'p tilli lug'atlarni yaratishga oid materiallar bilan boyitish imkonini beradi.

Tadqiqotda ilgari surilgan oqova suv va uni tozalash jarayonlarida qo'llaniladigan terminlarni to'g'ri ifodalash, qadimda xalqimiz foydalanib kelgan sohaga tegishli leksik birliklar, ularning xususiyatlari haqida, shuningdek, mazkur terminlarni ilmiy tadqiq etish va tartibga keltirish borasidagi ilmiy ma'lumotlar, tahliliy fikrlar va tavsiyalarni ommalashtirish muhim ekanligi dalillanganiga oid xulosalaridan Qashqadaryo viloyati televideniyesi 2024-yilning 22-noyabrida efirga uzatilgan "Fayzli kun" dasturida "Suv – hayot manbayi", "Najot bilimda" eshittirishlarida foydalanilgan (2024-yil 22-noyabrdagi 17-02a-313-son ma'lumotnomasi). Natijada dastur davomida o'zbek tili oqova suv va tozalash tizimi bilan bog'liq terminlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni, mazkur terminlarning o'zbek adabiy tili rivojidagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bilan boyitish imkonini bergan;

Oqova suv terminlarining izohli lug'atini tuzishga asos bo'luvchi so'z va terminlarni leksikografik tamoyillar asosida tanlash, soddalik, aniqlik, ixchamlilik mezonlarini belgilash asosida "O'zbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining illyustrativ-izohli lug'ati" (ISBN 978-9910-698-45-3/27.02.2025) tuzilgan. Natijada o'zbek tilidagi oqova suv va tozalash tizimi terminlarining qo'llanishiga aniqlik kiritilgan va lug'atning izohli variantini yaratish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop ettirilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, respublika jurnallarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 1 ta maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 137 sahifadan iborat bo'lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbek tili leksikasida oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining o'rni**" deb nomlanadi. Mazkur bob uch bo'limdan iborat. "*Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining o'rganilish tarixi*" deb nomlangan birinchi bo'limda o'zbek tilshunosligida suv, oqova suv va u bilan bog'liq leksik birliklar, shuningdek, bir qator usul hamda metodlar asosida suv tushuncha, leksema darajasida lisoniy obyektning turli xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar xususida so'z yuritiladi.

“Qadimgi turkiy lug‘atda” suv *[sub≈sug≈cuw≈]* so‘zining “suv”, “namlik”, “suyuqlik”; *suva* so‘zining “sug‘ormoq”, “namlamoq”, *suvsat* so‘zining “tashna qilmoq” (*ol anī suvsattī* – u uni suvga tashna qildi)¹⁹ ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan. Runik bitiklari va ilk eski turkiy til obidalarida *suv* leksemasi, uning struktur tuzilishi, yasaliş tuzilishida yuz bergan o‘zgarishlar misollar asosida tahlil qilib berilgan. Misol uchun, *tärkin suv* “balchiqli suv”, *süzük suv* “tiniq, ko‘m-ko‘k suv” va sh.k.²⁰. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida *suvsamishqa* – suvsaganda, *yashil suv* – zilol suv, *suv ichar* – suv ichar, *ko‘z suvi* – uyat, andisha, *tiriklik* – obi rahmat birliklari ishlatilgan²¹. *Suv*, *suv yil*, *Xizr suyi*, *suvor*, *suvsiz*, *suva*, *suy*, *suvol*, *suvar*, *sug‘ormoq*, *suvor*, *suchi* so‘zlaridan Alisher Navoiy o‘z asarlarida mahorat bilan foydalangan. A.P. Madvaliyev “O‘zbek ximiya terminologiyasi va uni normalashtirish masalalari” nomli nomzodlik ishida suvning ximiya termini sifatida boshqa so‘zlar bilan birikib so‘z birikmasi hosil qilishi, qo‘llanishi xususida aytib o‘tgan bo‘lsa, X. Jabborov suv asosi bilan yasalgan leksemalarning lug‘aviy-ma’noviy va grammatik xususiyatlarini tahlil qilgan, Alisher Navoiy ijodida *suv* so‘zining qo‘llanishiga doir tahlillarni amalga oshirgan²². Tadqiqotchi M. Mo‘minova²³ o‘zbek tilida “Suv” komponentli lisoniy birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq qilgan.

Dunyo tillarida keng qo‘llanadigan ruscha voda va inglizcha water leksemalarini qiyosiy aspektda o‘rganish jarayonida, ularning umumiy oilalarga birlashishi, umummadaniy so‘zshakllar mavjudligi xususida umumiy til oilalarida suv leksemasining ham fonetik, ham lisoniy belgilari o‘zaro o‘xshashligi va ularning lingvistik-lisoniy tarkibi aynan bir o‘zakdan kelib chiqqanligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. N.V. Volosuxinaning zamonaviy ingliz tili diskursida suv xo‘jaligi bilan bog‘liq terminlar tadqiqi alohida o‘rin egallaydi. G.M. Telejko “suv” leksemasining umumiy tillarga xos bo‘lgan ko‘rinishlarini keltirib, leksemani nostratik gipoteza asosida tahlil qilgan. A. Borisova, O.A. Chernikova kabi tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilganligi ham o‘rganilgan.

“O‘zbek tili leksik sathida oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining mazmuniy maydoni va sohaviy terminosistemada tutgan o‘rni” bo‘limida o‘zbek tili oqova suv va tozalash tizimini tashkil etayotgan elementlarning qanday mazmuniy maydonlardan tashkil topganligi, bu maydonlarning ichki tuzilishi va tuzilish birliklarining o‘zaro munosabati, har qaysi maydonlarning uzviy bog‘lanishi kabi masalalar keltirilgan.

Leksik sistema doirasida oqova suv va uni tozalash tizimi alohida o‘rin egallaydi. Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari – “Oqova suv” mazmuniy maydoniga birlashuvchi terminlar bo‘lib, bu maydonning muhim tarkibiy qismlari

¹⁹ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969. – С. 14, 512, 515, 516.

²⁰ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar, 2019. – B. 38.

²¹ Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – Б. 27.

²² Жабборов Х. Ўзбек тилида сув лексемасининг луғавий-маъновий хусусиятлари. – Қарши: Насаф, 2005. – Б. 27.

²³ Mo‘minova M.G‘. Suv asosli sodda leksemalarning lingvokulturologik xususiyatlari / Ta‘lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlar. Muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy 6-sonli online konferensiya. – Toshkent, 2023. – B. 155–167.

hisoblanadi. Ular o‘zbek tilining maxsus sohasi – oqova suv va uni tozalash usullariga oid leksik tizim tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi. *Oqova suv* termini umumiste’mol leksikada *iflos suv*, *kir suv*, *bo’tana suv*, *zang suv*, *chiqindi suv* deb yuritiladi. Ular *iflos suv*, *halqob suv*, *kir suv*, *chiqindi suv* ko‘rinishida o‘ziga xos sinonimik qatorni tashkil etsa-da, maydon nazariyasi qonuniyatlariga²⁴ ko‘ra faqat *suv* yadro, ya’ni maydon markazida turib, atrofiga tozalik, ifloslanganlik, ishlatilish va hokazo semalarga ko‘ra turli-tuman leksemalarni birlashtirib kela oladi. Masalan, ichishga yaroqli semasi va shu belgiga ko‘ra *chuchuk suv*, *toza suv*, *zilol suv*, *shirin suv*, *shifobaxsh suv*, *mineral suv*, *buloq suvi*, *chashma suvi*, *shaffof suv* kabi bo‘lsa, ichishga yaroqsiz semasiga ko‘ra *iflos suv*, *kir suv*, *sho‘r suv*, *bo’tana suv*, *chiqindi suv* kabi leksik birliklarda buni kuzatish mumkin. Yuqoridagi bu birliklar “tozalik (ichishga yaroqli va yaroqsiz; joylashish)” semasiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: a) *buloq*, *quduq*, *daryo*, *ko‘l*, *ariq*; b) *okean*, *dengiz*, *kanal*, *zovur*, *ko‘lmak* kabi. Bundan tashqari suvning rangi, maza-ta’mi, hidi asosida ham ikki guruhga ajratsa bo‘ladi: a) *shaffof zilol*, *tiniq*, *musaffo*, *ta’msiz*, *chuchuk*, *totli*, *shirin*, *rangsiz*, *hidsiz*; b) *loyqa*, *sho‘r*, *achchiq*, *badbo‘y*, *sassiq*, *bo’tana* kabi semali leksemalar. Shuningdek, “ichishga yaroqli (tozalik)” hamda “ichishga yaroqsiz (ifloslanganlik)” sememalari ostida birlashuvchi bu leksemalar o‘zaro zidlanib, biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan “*suv*” maydonida bir qator paradigmatic munosabatlarni hosil qiladi. “Ichishga yaroqli” va “ichish (ishlatish)ga” yaroqsiz semalarining barchasi uchun “*suv*” integral semasi birlashtiruvchi unsur vazifasini o‘taydi.

Tizimli yondashuv asosida suv mazmuniy maydoni ostida birlashgan ichishga yaroqli va ichishga yaroqsiz suv semalari ham o‘z navbatida mikromaydonlarni hosil qiladi. Bu mikromaydonlar o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarni quyidagicha ko‘rsatish mumkin (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval.

Ichishga yaroqli (toza suv)	belgi	Ichishga yaroqsiz (oqova suv)
xususiy belgi anglatuvchi	+	xususiy belgi (oqova suv) anglatuvchi
mavjudlik belgisi	+	mavjudlik belgisi
insonlar ehtiyoji	+	insonlar ehtiyoji
ishlov berish	+	ishlov berish
tarkibi (toza, sof)	–	tarkibi (iflos, chiqindilangan)
iste’mol qilinadi	–	iste’mol qilinmaydi
hosil bo‘lish	–	hosil bo‘lish

Keltirilgan belgilardan to‘rttasida *toza suv* va *oqova suv* leksemalari bir-biri bilan kesishmoqda, lekin oxirgi belgilar tarkibi hamda iste’molga yaroqli va yaroqsizligiga ko‘ra o‘zaro farqlanmoqda. Mazkur ikki leksema maydon tuzilishida muayyan o‘ringa ega va ular funksional-semantik jihatdan ikki qutbda turadi.

²⁴ Xolmanova Z. Semantik maydon va semantik to‘r imkoniyatlari / Kompyuter lingvistikasi: “Muammolar, yechim, istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy koferensiya. – Toshkent, 2022. – B. 37–43.

Suv maydoni ostida u bilan bogʻliq boʻlgan barcha terminlar funksional-semantik jihatdan, yaʼni hajmiy koʻlami, miqyosi, umumiylik darajasi, boshqa maydonlarni oʻz tarkibiga kirita olishi yoki boshqalarining tarkibiga kira olishi nuqtayi nazaridan birlashadi. Bir necha maydonning yadro qismida turgan *suv* supermaydoni oʻz ichiga *inson, hayvon, oʻsimlik, tabiat hodisalari (yomgʻir, qor, quyosh), toza suv, oqova suv kabi* mikromaydonlarini oladi. Shu tariqa tilning oʻziga xos giper-giponimik qurilmasi, yaʼni iyerarxiyasi vujudga keladi.

Oqova suv va uni tozalash terminlari tizimida – “*oqova suv*” mazmuniy maydoniga birlashuvchi terminlar boʻlib, bu maydonning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ular oʻzbek tilining maxsus sohasi – oqova suv va uni tozalashga oid leksik tizim tarkibiga kirishi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotimiz obyekti boʻlgan oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini ham mavzuviy guruhlariga ajratish, har bir mavzuviy guruhning lingvistik tabiatini ochib berish oqova suv semasi asosida birlashuvchi terminlarning mohiyatini chuqurroq oʻrganishga imkon yaratadi. Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari murakkab jarayon hisoblanadi. Eng avvalo, oqova suv mavzuviy tizimida “oqova” leksemi markaziy oʻrinni egallaydi. Oqova suv mavzuviy tizimi oʻz oʻrnida mikrotizimni hosil qiladi. Mazkur boʻlimda oqova suv leksikasining tasnifi haqida fikr yuritilib, mutaxassislarning fikrlariga tayangan holda oqova suv va tozalash tizimi, asosan, toʻrtta makroguruhga boʻlinib tasniflangan:

1. Oqova suvlar hosil boʻlish joylari va chiqindilanish tarkibini ifoda etuvchi terminlar.
2. Oqova suvni tozalash jarayoni bilan bogʻliq nomlarni ifoda etuvchi terminlar.
3. Oqova suvni oqizish va tozalash tizimi inshootlari, jihozlari, qurilmalari bilan bogʻliq tushunchalarni ifoda etuvchi terminlar.
4. Oqova suv tarkibi va tozalash jarayonida ishlatiladigan moddalar, suvoʻtlari nomini ifoda etuvchi terminlar.

Oʻz navbatida ushbu mavzuviy guruhlarining har bir aʼzosi oʻz oʻrnida yana ichki guruhlariga boʻlinadi.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining struktur-semantik xususiyatlari, derivatsiyasi”** deb nomlanadi. Oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari til sistemasining boshqa birliklaridan tarkibiy tuzilmasining murakkabligi bilan ajralib turadi. Oʻzbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarini struktur jihatdan ikkiga boʻlib oʻrganishni maʼqul koʻrdik:

- a) sodda terminlar;
- b) murakkab terminlar.

Hozirgi oʻzbek tili leksikasida oqova suv va uni tozalash terminologik tizimida morfologik usul bilan yasalgan koʻplab sodda yasama terminlar qoʻllanib kelinmoqda. Bunday terminlarning yasalişida *-la, -lash, -gich (-kich, -qich), -indi /-undi, -ma, -li* kabi affikslar faol ishtirok etadi.

Masalan: *flokul+lash, ekstrak+lash, koagul+lash, neytral+izatsiya+la+sh, toza+la+sh, xlor+la+sh, filtr+la+sh, ela+gich, yig'+gich, suz+gich, oq+indi, quyqa+indi, chay+indi, cho'k+indi, yuv+undi* kabi.

Sodda yasama soʻz shaklidagi terminlarning yasash asosi oʻz yoki oʻzlashgan qatlamga oidligiga koʻra ham guruhlariga ajratib tahlil qilish mumkin:

Yasalish asosi oʻz qatlamga oid birliklar: *oqindi, chiqindi, cho'kindi, yuvindi, maydalagich, zichlagich, to'plagich, to'sgich, tindirgich*.

Yasalish asosi oʻzlashgan qatlamga oid birliklar: *koagullash, adsorblash, ekstraklash, rektifiklash, flokullash, fraksiyalash, kristallash, neytrallash, ozonlash, konsentrlash, sentrifugalash, desorblash* kabi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, oqova suv va uni tozalash tizimi birikmali terminlari strukturasi xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Soha terminologiyasida *aero-, bio-, gidro- fito-, makro-, mikro-, ultra-* baynalmilal terminelementlari bilan yasalgan aerotenk, aerosuzgich, biodestruktor, biohovuz, bioindikator, gidroelevator kabi gibrid terminlarni ham uchratishimiz mumkin.

Tadqiqot obyektimizda ishlatilayotgan birikmalar tarkibiga koʻra ikki xildir:

1. Yigʻiq birikmalar. Bular ikki komponentli birikmalardir. Toʻplangan 500 dan ortiq birikmaning qariyb 40 % yigʻiq birikmadan iborat:

2. Yoyiq birikmalar. Bu birikmalar uch va undan ortiq mustaqil maʼnoli leksemalardan tarkib topgan: a) uch komponentli birikmalar (102 dan ortiq); b) toʻrt komponentli birikmalar (60 ta atrofida); d) besh komponentli birikmalar (45 ta atrofida); g) olti komponentli birikmalar (20 ta atrofida); e) yetti komponentli birikmalar (12 ta); f) sakkiz komponentli birikmalar (2 ta).

Soha terminologiyasida ikki komponentli birikmalar orasida quyidagi qolipli birikmalar faol ekanligi maʼlum boʻldi:

1) [sifat+ot] qolipli: *faol balchiq, suyuq goʻng, ogʻir metallar, organik moddalar, gorizontal nefttutgichlar;*

2) [ot+ot] qolipli: *chiqindi suv, bugʻlatgich mashinalar, sopol quvurlar, ekin maydoni, yogʻingarchilik suvlari, elektrodializ usuli.*

3) [feʼl+ot] qolipli birikmalar:

a) *[feʼl (sifatdosh) + ot]* tipidagi birikmali terminlar: *isitilgan suvlar, ifloslangan suvlar, filtrlangan suvlar, tiniqqan suv, choʻkadigan moddalar;*

b) *[feʼl (harakat nomi) + ot/sifat]* qolipli birikma terminlar: *yuvinish oqovalari, tozalash jarayoni, tozalash usuli, tozalash inshootlari, choʻmilish oqovalari.*

Yuqoridagilardan tashqari, oqova suv terminologiyasida kam miqdorda boʻlsa-da, *feʼl* bilan ifodalangan hokim asosning *ot*, *sifat*, *olmosh* bilan birikishidan hosil boʻlgan **[ot + feʼl]** *suvni taqsimlash, suvni xlorlash, suvni tozalash; [sifat + feʼl] biologik tozalash, tabiiy ifloslanish, sunʼiy ifloslanish; [olmosh + feʼl] oʻz-oʻzini tozalash; [ot + feʼl] filtr tindiruvchilar, suv chiqaruvchilar; [ot + sifat] qolipli sanoat oqovalari, atmosfera oqovalari* singari ikki komponentli murakkab terminlar ham uchraydi.

Birikma shaklidagi oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari ikki shaklda ifodalanishini kuzatdik:

1. Birikma shaklidagi terminlar faqat mustaqil soʻz turkumlariga oid soʻzlardan tashkil topadi. Bunday tarkibli murakkab birliklar sanab oʻtilgan barcha komponentli birikmalarda uchraydi. Masalan: *chiqindi suv, suv havzalarining iflosligi, oqova suvlardagi ogʻir metall ionlarini reagent usulida tozalash;*

2. Murakkab birikmalarda mustaqil soʻz turkumlaridan tashqari yordamchi soʻz turkumlariga oid soʻzlar ham ishtirok etadi: *filtrlovchi toʻsiqlar orqali filtrlash, organik va mineral ifloslangan oqovalar, koʻpikli fraksiyalash usuli bilan tozalash, mineral moddalar bilan ifloslangan oqova suvlar, organik moddalar bilan ifloslangan oqova suvlar, osma moddalar bilan ifloslangan oqova suvlar.*

Uch komponentli birikmadan tortib sakkiz komponentli ayrim birikmalar tarkibida yordamchi soʻzlar ishtirok etganligi aniqlandi.

Oqova suv va uni tozalash tizimi terminosistemasida birikma terminlardan yasalgan qisqartma terminlar ham mavjud. Bunday terminlar, asosan, birikma termin komponentlarining bosh harflari asosida hosil qilinadi. Masalan: KBBT (kislorodga boʻlgan biokimyoviy talab), KBKE (kislorodga boʻlgan kimyoviy ehtiyoj), KBE (kislorodga biologik ehtiyoj), REChU (ruxsat etilgan cheklangan ulushlari), SFM (sirt faol moddalar) tartibda shakllantirilgan.

Oqova suv terminologiyasi tarkibida juft va takroriylikni hosil qiluvchi birliklar kammahsul ekanligi qayd etildi. Juftlikni hosil qiluvchi birliklar miqdori ancha kam boʻlib, bori ham birikma shaklidagi terminlar tarkibidan joy olganligi aniqlandi. Masalan: *xilma-xil xoʻjalik axlatlari bilan ifloslangan xoʻjalik-maishiy oqova suvlar, meva-sabzavotga ishlov berishda hosil boʻlgan oqovalar, temir-beton qoliplarni yuvishdan hosil boʻladigan oqovalar.* Takroriy birliklar esa sohada umuman uchramadi.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, oʻzbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminologiyasida yakka soʻzli terminlarga nisbatan sintaktik usul bilan yasalgan terminlar salmoqli oʻrinni egallaydi. Komponentlarning murakkab nisbati bilan birikishi orqali soʻzlarni shakllantirish usuli oʻzbek tili oqova suv va uni tozalash tizimi terminologiyasida juda keng tarqalgan. Shuningdek, soha terminlarining aksariyati ikki, uch, toʻrt va besh komponentdan iborat koʻp komponentli soʻzlar hisoblanadi.

Qisqasi, oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari semantik tarkibi hamda tuzilish jihatdan murakkab boʻlishiga qaramay, maʼnoda muayyanlik namoyon boʻlib turadi. Tilimizdagi oqova suv va uni tozalash tizimi terminlarining struktur tabiati oʻziga xos boʻlib, turli xil tuzilish sistema birliklarining maʼno qirralarga ham taʼsir koʻrsatadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Oqova suv bilan bogʻliq terminlarning leksikografik talqini”** deb nomlangan. Mazkur bob uch boʻlimdan tarkib topgan.

Oʻzbek tilining izohli lugʻatlarida oqova suv va uni tozalash tizimiga oid terminlarning berilishida har xilliklar mavjud boʻlib, bugungi kun lugʻatchiligi

jiddiy tadqiqotlar olib borishni va zamon talablariga moslashishni vazifa qilib qo'yadi. Quyida "O'zbek tilining izohli lug'atlari"da oqova suv bilan bog'liq terminlarning leksikografik talqiniga doir ayrim jihatlar tahlilga tortilgan.

1981-yil nashr etilgan 2 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 81 ta sohaga doir terminlar, 2006–2008-yillar A. Madvaliyev tahriri ostida chop etilgan – "O'zbek tilining izohli lug'ati" da jami 83 ta hamda 6 tomli O'TILda 87 ta oqova suv va uni tozalash tizimi terminlari berilganligi aniqlab chiqildi.

2, 5 va 6 jildli O'TILda soha terminlarining berilish miqdori farqli ekanligini jadvaldagi raqamlardan ko'rishimiz mumkin. Har bir lug'atda keltirilgan birliklar miqdorini bir-biri bilan solishtirganimizda esa quyidagi natijalar kelib chiqdi (3.2-jadvalga qarang).

3.2-jadval.

**Oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog'liq terminlarning
O'TILlarida berilish qiyosi**

№	Qiyoslangan O'TILlari	Miqdor	Farqli so'zlar
1	2 va 5 jildli lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	10 ta;	bug'lanish, filtrlanmoq, kanalizatsion, kanalizator, neytrallanmoq, oksidlanmoq, tiniqlanmoq, tindirilmoq, zararsizlantirilmoq, yuvundi
2	5 va 2 jildli lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	11 ta	bioindikator, bug'latkich, filtrli, biofiltr, biomaydon, biokimyoviy, biotexnologiya, oqava, oksidlanish, yuvindi, quyilmoq
3	2 va 6 jildli lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	9 ta	bug'lanish, filtrlanmoq, kanalizatsion, kanalizator, neytrallanmoq, xalqob, oksidlanmoq, tiniqlanmoq, tindirilmoq, zararsizlantirilmoq
4	6 va 2 jildli lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	15 ta	bioindikator, bug'latkich, filtrli, biofiltr, biomaydon, biokimyoviy, biotexnologiya, oqava, oksidlanish, quyulmoq, sentrifuga, suvqalampir, tashnov, toshnov, ushlagich
5	6 va 5 jildli lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	7 ta	quyulmoq, sentrifuga, suvqalampir, tashnov, toshnov, ushlagich, yuvundi.
6	5 va 6 jildli lug'atning bir-birida takrorlanmagan terminlar soni	3 ta	quyilmoq, xalqob, yuvindi.

O'zbek tilining 2, 5 va 6 jildli izohli lug'atlarida uchraydigan lotin, yunon, ingliz, fransuz, italyan tillaridagi soha terminlarining aksariyati rus tili orqali tilimizga kirib kelganligi aniqlandi.

Shuningdek, 2 va 5 jildli izohli lug'atda 9 tadan, 6 jildlida esa 8 ta fors dastsho'y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash, xalqob hamda arab tilidan 4 ta hovuz, havza, iflos, kimyoviy to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga o'zlashgan terminlar mavjudligi aniqlandi. Ularni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin (3.3-jadvalga qarang).

2, 5 va 6 jildli O‘TILlarida berilgan oqova suv va uni tozalash tizimi bilan bog‘liq o‘zbek tiliga o‘zlashgan terminlar

№	Tillar	O‘TIL	Miqdori	Misollar
1	Lotin	O‘TIL 2 jildli	8	<i>(r<lat.) absorbsiya, adsorbsiya, filtr, kanal, kanalizator, kanalizatsion, kanalizatsiya, kollektor</i>
		O‘TIL 5 jildli	6	<i>absorbsiya, adsorbsiya, bioindikator, kanal, kanalizatsiya, kollektor</i>
		O‘TIL 6 jildli	4	<i>absorbsiya, adsorbsiya, kollektor, kanal</i>
2	Fransuz	O‘TIL 2 jildli	0	–
		O‘TIL 5 jildli	2	<i>rezervuar, filtr</i>
		O‘TIL 6 jildli	2	<i>rezervuar, filtr</i>
3	Italyan	O‘TIL 2 jildli	0	–
		O‘TIL 5 jildli	1	<i>truba</i>
		O‘TIL 6 jildli	1	<i>truba</i>
4	Yunon	O‘TIL 2 jildli	1	<i>manometr</i>
		O‘TIL 5 jildli	1	<i>manometr</i>
		O‘TIL 6 jildli	1	<i>manometr</i>
5	Ingliz	O‘TIL 2 jildli	0	–
		O‘TIL 5 jildli	1	<i>filtratsiya</i>
		O‘TIL 6 jildli	1	<i>filtratsiya</i>
6	Rus	O‘TIL 2 jildli	5	<i>voronka, lotok, truba, umivalnik, filtratsiya</i>
		O‘TIL 5 jildli	3	<i>voronka, lotok, umivalnik,</i>
		O‘TIL 6 jildli	4	<i>kanalizatsiya, lotok, umivalnik, voronka</i>
7	Fors	O‘TIL 2 jildli	9	<i>dastsho‘y, obdov, obpartov, obrez, panjara, tarnov, xaskash, xalqob, obxona</i>
		O‘TIL 5 jildli	9	<i>dastsho‘y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash, xalqob</i>
		O‘TIL 6 jildli	8	<i>dastsho‘y, obpartov, obrez, obxona, obdov, panjara, tarnov, xaskash</i>
8	Arab	O‘TIL 2 jildli	4	<i>hovuz, havza, iflos, kimyoviy</i>
		O‘TIL 5 jildli	4	<i>hovuz, havza, iflos, kimyoviy</i>
		O‘TIL 6 jildli	4	<i>hovuz, havza, iflos, kimyoviy</i>

5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ning birinchi nashriga kiritilgan ayrim paronimlar farqlanmagan. Yuvindi so‘ziga berilgan izohga e’tibor qaratsak, yuvmoq fe’lining o‘tgan zamon, 3-shaxs, o‘zlik nisbatdagi shakli va “yuvish, yuvinishdan qolgan suv qoldig‘i” ma’nosi “omonim so‘z” sifatida qaralib, alohida-alohida so‘z tarzida rim raqamlari bilan bosh so‘z qilib berilgan. Aslida yuvindi va yuvundi paronim so‘zlar bo‘lib, bizga kerakli sememani -undi murakkab qo‘shimchasi bilan yasalgan “yuvundi” so‘zi beradi. Mazkur holat 5 (ikkinchi nashri) va 6 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”larida bartaraf etilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Yana shunday holatni “quyilmoq” va “quyulmoq” paronimlarida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek tilining 5 jildli izohli lug‘ati (birinchi nashr)da

